XALQ DEPUTATLARI NORIN TUMANI XALQ DEPUTATLARI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-noyabr VII-13-113-6-83-K/25 Norin tumani

Norin tumanidagi geografik ob’yektlarni nomlarini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5852-son farmoni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Mamalakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020-yil 20-yanvardai 34-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 6-oktabrdagi 05-19-17297-sonli “Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to’g’risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o’tkazish bo’yicha ekspert komissiyasining ekspert xulosasi” ijrosini taminlash maqsadida tuman komissiyasi bergan xulosasiga asosan tumandagi “Sho‘rariq” mahallasi nomini “Yangi Namangan” mahallasi nomiga o‘zgartirish to’g’risidagi taklifini ko’rib chiqib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Norin tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 6-oktabrdagi 05-19-17297-sonli “Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to’g’risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o’tkazish bo’yicha ekspert komissiyasining yig’ilish bayoni” ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi o‘zgarayotgan mahalla nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo’limi (Z. Imomov), tuman kadastr agentligi, tuman qurulish bo’limi boshlig’i (M.Tursunov) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari ilovada ko’rsatilgan geografik ob’yektni

belgilangan tartibda davlar ro’yxatidan o’tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish xujjatlariga o’zgartirishlar kiritish bilan bog’liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi (Sh.Irgashev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi NURMATOV JO‘RABEK XAMIDOVICH

Xalq deputatlari Norin tumani
Kengashining
2025-yil 5-noyabrdagi
VII-13-113-6-83-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik ob’ektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	Mahalla	Norin tumani	Sho‘rariq	Yangi Namangan